

**Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna
Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi
FarDU, Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi**

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH TEKNOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqola, maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar, to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari ishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi, bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek maktab dasturini kengaytirish, hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan tashqari ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi, tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Ekskursiya, tabiatshunoslik, sinfdan tashqari ishlar, qiziqish uyg'otish, gerbariy va kolleksiyalar, model, maket, ko'rgazmali qurollar, o'quv-tajriba maydonchasi, kuzatish, tajribalar.

Maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar, to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari ishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan tashqari ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtdan unumli foydalanish, imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qoyilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir. Uzoq muddatli tajribalar qoyish, gerbariy va kolleksiyalar uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, tirik tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari ishlarning shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni politexnik tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy obyektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Tabiatshunoslikda sinfdan tashqari to‘garak ishlari o‘qituvchi rahbarligida olib boriladi. Avvalo to‘garakning ish rejasi tuzib olinadi. Rejani tuzishda mashg‘ulotlar mavzusi dars mashg‘ulotlari mavzusini takrorlamasdan, ularga asoslangan holda bir-birini to‘ldirishi kerak. To‘garak ishlari ham darsda olgan nazariy va amaliy bilimlarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. “Nonni e‘zozlang” kechasi uchun reja: 1. Kirish. Kechani olib boruvchilarning tabrigi. 2. Non tayyorlashning tarixi haqida ma‘ruza. 3. Non ishlab chiqarish haqida, bug‘doy navlari haqida ma‘ruzalar. 4. Tanaffus vaqtida o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan non haqidagi she‘r va qo‘shiqning ijro etilishi, maqollarning yoddan aytilishi. Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o‘z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta’sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug‘ nomga munosib ish ko‘radi. Shuningdek, mustaqil fikr yuritadigan inson o‘z-o‘zini anglaydi, o‘zining xatti-harakati va odamlar bilan munosabatiga tanqidiy baho bera oladi, umuminsoniy axloq normalariga rioya etadi, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘ladi. M.N. Skatkin tabiiyot metodikasi bo‘yicha XX asrning 50-yillarida nashr etgan ilmiy ishlarida kichik yoshdagi o‘quvchilarning tabiatshunoslikka oid bilimlarni o‘zlashtirishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa metodlar bilan bir qatorda kuzatish metodiga alohida urg‘u berdi, uning yordamida tabiat to‘g‘risida aniq tasavvur va tushunchalar shakllanishini ta’kidladi. U o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligidagi kuzatishlaridan keyin jonli tabiat burchagida yoki bevosita tabiatda mustaqil kuzatishlar olib borishlarini taklif qildi. Uning fikricha, mustaqil kuzatishlar o‘tkazish oldidan o‘qituvchi kuzatishning maqsadi, mazmuni va metodikasini tushuntirib berishi kerak. M.N. Skatkin o‘z tadqiqotlarida tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar tashkil qilish metodikasi hamda tabiatni o‘rganishga oid mashg‘ulotlarda bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalariga katta e‘tibor berdi. Tabiatda, o‘quv-tajriba maydonida va sinfdan kuzatish, hamda tajribalar o‘tkazish zararlari to‘g‘risida P.A.Zavitayevning “Boshlang‘ich maktabda tabiiyot bo‘yicha kuzatish va tajribalar” nomli kitobida ham shunday fikr yuritiladi. Unda o‘rganilayotgan har qanday hodisa haqidagi tasavvurlarni kitoblardan material o‘qish bilan to‘ldirish, hamda mustahkamlashni talab qiluvchi kuzatish va tajribalarning aniq metodikasi bayon qilinadi. Ekskursiyalar, predmetli darslar va kuzatishlar o‘tkazish metodikasini yorituvchi boshqa nashrlar ham vujudga keldi. Jumladan, A.K.Verzinaning ishi nashr qilindi, unda 1-4-sinflarda ob-havoni kuzatish tizimi taklif qilingan, kuzatish natijalaridan ona tili va rus tili, arifmetika, geografiya va tabiiyot darslarida, maktab o‘quv-tajriba maydonidagi amaliy mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish uslublari keltirilgan. Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda quyidagi amaliy uslublardan foydalanish samarali natijalarni beradi: 1. O‘quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi; 2. Rasm chizishi; 3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo‘yicha ishlari; 4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari; Tajriba o‘tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qipchaqova Yo., & Soxibova F. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH MUAMMOLARI. Мироявая наука, (3 (60)), 18-21.
2. Qipchaqova, Y. H. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Research Focus, 1(2), 340-347.
3. Qipchaqova, Y. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH SOHASIDAGI XORIJ MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAJRIBALARI. Science and innovation, 1(B8), 106-111
4. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
5. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.

6. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, (2021)M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 37-38.

7. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕХНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 9-10.

8. Қипчақова, Ё., Соибжоновна, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАҚЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 11-12

9. Kipchakova Yorkinoy, (2023) PERSONAL DEVELOPMENT OF A FUTURE TEACHER AS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL TRAINING Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. (181-187)

10. Yorqinoy Qipchaqova , Kasimova Muxlisa Hamdamovna (2023/4/14) PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI IQRO.jurnali (477-484)

11. Y.N. Qipchaqova (2023/4/14) Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faolligini rivojlantish. IQRO jurnali (485-493)

12. Y. Qipchaqova U.Xalilova, I. Mirzaolimova (2022/1/20) Bo‘lajak o‘qituvchilarning integrativ faoliyatning loyihali komponenti “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari 3-tom (116-b)

13. Qipchaqova Yorqinoy. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA CHET TILLARINI O‘QITISHGA O‘ZARO TA‘SIR ETISH OMILLARI. Ta‘lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(10), 3–5.

14. Kipchakova Yorkinoy (2023). ISSUES OF INTERACTION WITH LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY EDUCATION. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 780–782

15. Hamidjonovna, Y. Q. (2023). SHAXS RIVOJLANISH JARAYONI, TARBIYASI VA UNING IJTIMOIYLASHUVI. Научный Фокус, 1(2), 475-480.

16. Kipchakova Yorkinoy. (2023). SOME PROBLEMS OF PREPARING PRIMARY CLASS TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 777–779. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/841>

17. Kipchakova, Y. (2021). Methodological And Didactic Aspects Of Information And Intellectual Culture In The Education Of A Developed Generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.

18. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna Kasimova Muxlisa Xamdamovna. (2023). FACTORS TO IMPROVE THE PEDAGOGICAL SKILLS AND PROFESSIONAL CULTURE OF THE EDUCATOR. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 35–38. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/320>

19. QIPCHOQOVA Yorqinoy, MADRAHIMOVA Mohiraxon Imomaliyevna (2023) МАКТАБГАЧА ТА‘LIMDA STEAM TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI «Педагогик ва психологик тадқиқотлар» (6-11)

20. Yo.H.Qipchaqova (2022) Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy yondashuv asosida tarbiyalash. Xorazm Ma‘mun Akademiyasi 11/3 2022.(143-145)

21. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TIL O‘QITISHGA O‘ZARO TA‘SIR ETISH MASALALARI “TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR” RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (25-28)

22. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) *BOSHLANG’ICH SINIF O’QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AYRIM MUAMMOLARI* “TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR” RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (42 -44)

23. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna, Ergasheva Maftuna Davlatjon qizi. (2023). ISSUES OF TEACHER SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL IDEAS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), (129–133). Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/185>

24. Y.H. Kipchakova. (2023). PREPARATION FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BY DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(3), 243–262. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7745915>